

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

IQTISODIYOT FAKULTETI

*Qo‘lyozma huquqida
UDK: 338:6II2.15.61*

TO‘RAYEV XURSHID BAXRIDDIN O‘G‘LI

**RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ELEKTRON
TIJORATNI RIVOJLANTIRISH**

**70310102 – “Iqtisodiyot” (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) mutaxassisligi
bo‘yicha
magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan**

DISSERTATSIYA

**Ilmiy rahbar:
PhD, dots. A. A. Kasimov**

TOSHKENT – 2024

Magistrlik dissertatsiya ishi “Yashil” iqtisodiyot kafedrasida dastlabki himoyadan o‘tgan.

8 -sonli bayonnoma « 22 » aprel 2024 y.

Ilmiy rahbar: PhD, dots. A. A. Kasimov



Talaba: X. To‘rayev




Dissertatsiya Iqtisodiyot fakultetida 2024 yil “ 13 ” 05

№ 1/02 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

“Himoyaga tavsiya etiladi”

“Yashil” iqtisodiyot kafedrası

mudiri prof. I. Xotamov



“ 05 ” 05 2024 yil.

Himoya 2024 yil “ 17 ” 05 soat 14⁰⁰ da “Texnopark” mas’uliyati cheklangan jamiyatda bo‘lib o‘tadi.

ANNOTATSIYA

Texnologiyalar asrida yashayotgan har bir inson o'z ehtiyojlarini qondirish uchun iloji boricha kam harakat qilish va vaqtini, ortiqcha sarf xarajatlarni tejash uchun bir marta bo'lsa ham online yoki masofaviy do'kon xizmatlaridan foydalagan.

Ushbu kichik servis turlari majmuasi elektronik tijorat degan yangi iqtisodiy sohani tashkil etadi. Elektron tijorat deb nomlanuvchi, tovarlar yoki xizmatlarni Internetda elektron shaklda sotib olish va sotishdir. Shuningdek, u auktsionlar, chiptalar va bank xizmatlari kabi boshqa onlayn faoliyatga ham tegishli bo'lishi mumkin. Ushbu maqolada biz elektron tijoratning har xil turlari, uning afzalliklari, nima uchun elektron tijorat muhimligi va ushbu yangi biznes turini O'zbekiston uchun qanchalik zarurligini muhokama qilamiz.

Shuningdek, raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron tijoratdan samarali foydalanish asosida iqtisodiyot tarmoqlarini yanada rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan hamda mualliflik yondoshuvlar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, elektron tijorat, internet, elektron savdo, platformalar, veb-server, B2C, virtual savdo, tarmoq, e-karmon, online bank, elektron pul, elektron marketing.

ABSTRACT

Everyone living in the age of technology has used online or remote store services at least once in order to satisfy their needs as little as possible and to save time and excessive expenses.

This complex of small service types forms a new economic field called e-commerce. E-commerce is the buying and selling of goods or services elektronically on the Internet. It can also apply to other online activities such as auctions, tickets and banking services. In this article, we will discuss the different types of e-commerce, its advantages, why e-commerce is important and how necessary this new type of business is for Uzbekistan. In this article, we will discuss the different types of e-commerce, its advantages and disadvantages and why e-commerce is important.

Also, based on the effective use of e-commerce in the conditions of the digital economy, practical recommendations for the further development and improvement of economic sectors were developed and authorial approaches were put forward.

Keywords: digital economy, e-commerce, internet, platforms, web server, B2C, virtual business, network, e-karmon, online banking, e-cash, e-marketing.

MUNDARIJA

ANNOTATSIYA	3
KELTIRILGAN JADVALLAR RO‘YXATI	6
KELTIRILGAN RASMLAR RO‘YXATI	7
KELTIRILGAN QISQARTMALAR	8
I BOB. KIRISH	9
1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.....	11
1.2. Tadqiqot maqsadi va vazifalari	12
1.3. Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari	13
1.4. Tadqiqot obyekti va predmeti	14
1.5. Tadqiqotning ilmiy yangiligi.....	14
1.6. Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi.....	15
II BOB. ADABIYOTLAR SHARHI	17
2.1. Kirish	17
2.2. Mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar.....	18
2.3. Mahalliy me‘yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi	21
III BOB. TADQIQOT METODOLOGIYASI	25
3.1. Tadqiqot dizayni.....	25
3.2. Ma‘lumotlarni to‘plash jarayoni.....	25
3.3. Tahlil uchun qo‘llaniladigan usullar	26
3.4. Tadqiqotni o‘tkazish uchun zarur sharoitlar	26
3.5. Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi	27
3.6. Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy ahamiyati.....	28
IV BOB. TAHLIL VA NATIJALAR	29
4.1. Raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron tijoratni rivojlantirishning nazariy asoslari	29
4.2. Raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron tijoratni rivojlantirish holati tahlili	40
4.3. Raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron tijoratni rivojlantirish istiqbollari ...	53
V BOB. XULOSA VA TAKLIFLAR	57
5.1. Tadqiqot savoliga tegishli natijalarning qisqacha ifodasi	57
5.2. Tadqiqotning asosiy taklif va tavsiyalari	58
5.3. Tadqiqot cheklovlari va kelgusi tadqiqotlar uchun takliflar	60
Foydalanilgan adabiyotlar	61
Ilovalar	64

I BOB. KIRISH

Mamlakatimiz yangi iqtisodiy bosqichga ko'tarilishi oqibatida barcha sohalarda keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi oqibatida elektron tijorat tizimi ham yangi bosqichga ko'tarildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrdagi "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-6079 son Farmonida "Elektron tijorat va elektron to'lovlar tizimini rivojlantirish maqsadida quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi: axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, shu jumladan mijozlarni masofadan aniqlash tizimlarini joriy etish orqali masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish; xalqaro elektron tijorat standartlari va zamonaviy axborot xavfsizligi talablariga rioya qilish uchun elektron tijoratni rivojlantirishning huquqiy asoslarini, shuningdek, mavjud standartlar va elektron tijorat qoidalarini takomillashtirish va yangilash; raqamli infratuzilmani rivojlantirish, mobil va simli Internet jahon axborot tarmog'i qamrovi va tezligini yanada oshirish orqali elektron tijorat platformalariga shaxsiy raqamli uskunalardan ulanish imkoniyatlari va ko'lamlarini oshirish va hokazolar" amalga oshirish belgilab berilgan. ¹

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da respublikaning eksport salohiyatini oshirish orqali 2026 yilda respublika eksport hajmlarini 30 milliard AQSH dollariga yetkazish; xususiy sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish; eksportchi korxonalariga ko'rsatilayotgan tashkiliy va moliyaviy yordam berish tizimini takomillashtirish orqali respublika eksport salohiyatini oshirish; mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSH dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralarini ko'rish;

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrdagi "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-6079 son Farmonida. <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>